

**YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY MADANIY MEROS  
OBYEKTARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
MUAMMOLARI**

*G‘aniyeva Bibixonim Shoymardonovna*

*O‘zDSMI “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”*

*ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistiri*

*“Adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini xalqimiz,  
ayniqsa, yoshlarimiz unutmashligi lozim”*

**Cho‘lpon.**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlar tarbiyasida milliy madaniy meros obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari haqida fikr va ma’lumotlar keltirilgan.*

*Kalit so‘zlar: Milliy madaniy meros, adabiyot, san’at va madaniyat, mafkura, xalq, davlat, jamiyat.*

*Аннотация: В данной статье представлены идеи и информация о проблемах повышения эффективности использования объектов национального культурного наследия в воспитании молодежи.*

*Ключевые слова: Национальное культурное наследие, литература, искусство и культура, идеология, народ, государство, общество.*

*Abstract: This article presents ideas and information about the problems of increasing the effectiveness of the use of national cultural heritage objects in youth education.*

*Key words: National cultural heritage, literature, art and culture, ideology, people, state, society.*

“Tarixsiz, milliy qadriyatlarsiz yorqin kelajak bo‘lmaydi” – deb otabobolarimiz bejizga oldinlardan buyon ta’kidlamaydilar. Chunki, tarix va milliy qadriyatlarimiz bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda tarixini va an’analarini saqlab qolish va dunyo bo‘ylab yoyishga harakat qilayotgan davlatlar

sifatida O‘zbekiston davlati va uning xalqini misol qilsak bo‘ladi. Mamlakatimiz juda katta tarixga ega, qadimdan nishonlanib kelinadigan urf-odatlar ostida katta hikmat yotadi. Bu urf-odatlarni va ulkan tariximizni asrash va kelajak avlodga yetkazish bu bizning oliy maqsadlarimizdan biridir. Qadimda bobolarimiz, “tarix bu eng katta muallim”, “tarixi yo‘q davlat o‘zligini anglay olmaydi” shu kabi maqol va ibratli so‘zlardan eshitganmiz. Darhaqiqat, mamlakatimiz yoshlarini tarixni, urf-odatlarimizni bilgan holda va ularga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim, bu esa o‘z navbatida dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Xususan davlatimizda, tariximizni davlatlararo tanitish, yosh avlodni milliy qadriyat va an‘anaga bo‘lgan qiziqishini oshirish ustida olib borilayotgan islohotlar bir talay desak adashmagan bo‘lamiz.

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an‘ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o‘rin tutib, ular kishilar turmush tarzining o‘ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyat, san‘at, fan va ta‘lim sohalarini rivojlantirish, uni yangi davr, yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish, bu sohalarda ham islohatlarni amalga oshirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunday zamonaviy tushunchalar, yangi uslublar, kashfiyotlar nechog‘li ahamiyatli bo‘lsa, ajdodlarimizning bu sohalaridagi ma‘naviy-ijodiy merosining ahamiyati ham undan kam emas.

Xalqning madaniy va ma‘naviy qadriyatlari, moddiy va nomoddiy merosi ming yillar mobaynida qudratli ma‘naviyat manbai bo‘lib, milliy an‘analar zamirida xalqimizning boy va qadimiy tarixi, orzu-istaklari, buyuk istiqbol manzaralari mujassamlashgandir.

Jamiyatdagi ma‘naviyat va madaniyat masalalarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi, o‘sha jamiyat tarixi, taraqqiyot va rivojlanishining kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan

tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi". [1:1]

“Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. [2:1]

Milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab avaylash, ularni qadriyat sifatida yoshlar ongiga singdirish hamda har tomonlama rivojlantirish xalqning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltiradi. Ma'lumki har bir davlatning va millatning rivojlanish jarayoni, madaniyat va san'at darajasi bilan belgilanadi. Bugungi kunda yurtimizda milliy madaniyatimizni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 28-noyabr kuni “O'zbekistonda milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Shu bilan birga xalqimizning ma'naviy-marifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash hamda soha mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning zamirida xalqning, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy ongini yuksaltirish, dunyoqarashini yanada rivojlantirish hamda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, milliy madaniyatimizni asrab avaylash maqsadi yotadi.

Biz madaniy meros deganda aksariyat hollarda moddiy madaniy merosni ko'z oldimizga keltirishga o'rganganmiz. “Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi o'rnida an'anaviy ravishda “xalq ijodiyoti”ni tushunib kelganmiz. “Xalq ijodiyoti” tushunchasi ostida esa raqs, musiqa, tomosha san'ati, milliy hunarmandchilik va xalq og'zaki ijodiyoti nazarda tutilgan. Aslida “nomoddiy madaniy meros” tushunchasi “xalq ijodiyoti”ga qaraganda ko'proq narsani qamrab oladi. [3:1]

“Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi urf-odatlarni, oʻziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va koʻnikmalarni, shuningdek, ular bilan bogʻliq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa oʻz navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga oʻtib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va oʻz tarixiga bogʻliq holda yaratiladi va bu ularda oʻziga xoslikni, vorislik tuygʻusini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga koʻmaklashadi. [4:1] Bundan koʻrinadiki madaniy meros obyektlarining bari aslida nomoddiy madaniy merosning turkumiga kiradi. Shunday ekan, aslida nomoddiy madaniy merosning ilk kurtaklari qanday vujudga kelgan?

Insoniyat qadim-qadimdan oʻz davriga xos turmush tarziga, moddiy va maʼnaviy madaniyatiga, yaʼni maʼlum darajadagi sivilizatsiyaga ega boʻlgan. Davrlar oʻtishi bilan insoniyat sivilizatsiyasi darajasi oʻsib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli qanchalik darajada moddiy va maʼnaviy boyliklarni yaratish va koʻpaytirib borishi bilan bogʻliq kechgan. [5:1]

Ibtidoiy jamiyat odamlarining kun kechirishi benihoya ogʻir boʻlganidan ular toʻda-toʻda boʻlib yashashardi, tabiatning dahshatli hodisalariga birgalikda qarshilik koʻrsatib, yashash uchun kurash olib borardilar. Bu davr odamlari hali maʼdan nimaligini bilmasdi va ammo ishlab chiqarish qurollari yaratishga qodir edi. Mehnat jarayonida va tabiat kuchlari bilan kurashda odam qoʻlining takomillashib borishi tufayli kishi organizmining boshqa aʼzolari, idrok-fahm etish layoqati ham taraqqiy etib, unda talaffuz va estetik sezgilarning dastlabki faktorlari tugʻila boshlaydi. Negaki, odamning tabiat hodisalarini, uning rang va tafovutlarini, ohang va boshqa sifatlarni bilishga qiziqishi har vaqt mehnat jarayoni bilan uzviy bogʻliq boʻladi. Odamning yashash uchun kerak boʻlgan

narsalarni topishga va buning uchun tabiat hodisalari hukmronlik qilish istagi va uzoq kurashi orqasida sezgi organlari, ong va talaffuzi taraqqiy topadi. [6:1]

Ibtidoiy kishilar hali yozuvni bilmagan zamonlarda o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etganlar. Shu asnoda ularning og'zaki badiiy ijodi paydo bo'lgan. Binobarin, og'zaki ijodiyot o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'z san'ati bo'lib, ularning barcha na'munalari jonli ijro jarayonidagina yashaydi, shu sababdan ayrim janrlarda so'z va kuy omuxtaligi yetakchi bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati elementlari ustun turadi. [7:1]

Kishilarning tabiat va jamiyat haqida yuritgan fikr-mulohazalari, bilishga bo'lgan intilishlari, real hodisalar, dunyo va odamning paydo bo'lishi, "u dunyo" va mifik tushunchalar afsonalarning paydo bo'lishida obyektiv manbalik vazifasini o'tagan. [8:1]

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ibtidoiy davr – NMMning eng sodda ko'rinishlari o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari, ijro san'atida, jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisi, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarda dastlabki rivojlanish davri boshlanganligini aniqlab olish mumkin.

Globalashuv jarayoni va uning o'ziga xos imkoniyat va talablari jamiyat va shaxs o'rtasida o'zaro hamkorlik va ziddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat jamiyat taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy naf va shuningdek salbiy ta'sir ham etmoqda. Globalashuv jarayonining eng muhim masalasi sifatida qaralayotgan "Ommaviy madaniyat" va uning salbiy ta'siriga eng avvalo shaxs ma'naviy olamini shakllantiruvchi muhim omil NMM namunalaridan foydalanish kunning dolzarb masalasidir. Shu maqsadda tarix fanlari ixtisosligi bo'yicha tadqiqotchilar V.O. Marmilova, O.V. Galkova, B.R. Tursunov, B.M. Hamraqulova va Q.N. Nasriddinov NMMning jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari yo'nalishi bo'yicha, NMM tarixiy jarayoni fenomeni sifatida madaniyatshunoslik va tarixiy fanlar tabaqasi doirasida, urf-odat va marosimlar, qarashlar va etnografik ma'lumotlarni umumlashtirish asosida

tadqiqot olib borgan. Jumladan, XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida Quyi Volgabo'yi madaniy merosini asrab qolish yuzasidan V.O.Marmilova o'z tadqiqotida madaniy merosni saqlab qolish insonlar jamiyatining funkcionalligining asosiy paradigmasi sifatida: madaniy meros tarixiy jarayon fenomeni sifatida; madaniy merosni saqlab qolish madaniyatning vazifalaridan biri sifatida; xalqaro, milliy va hududiy rivojlanish strategiyasi davrida madaniy merosni saqlab qolish muammosi, Quyi Volgabo'yi madaniy merosni saqlab qolish: Quyi Volgabo'yi madaniy va tarixiy o'ziga xosligi; Quyi Volgabo'yi nomoddiy madaniy merosni saqlab qolish muammolari; madaniy yodgorliklarni saqlab qolish, hududda madaniy merosni saqlab qolishning bir usuli sifatida ekanligini o'rgangan. [9:1]

V.V.Matayev tomonidan esa yuqori sinf o'quvchilari ongida qo'shimcha ta'lim sharoitida o'z o'lka madaniy merosiga hurmat hissini shakllantirish tadqiq etilgan bo'lib, mazkur ishda yuqori sinf o'quvchilarida o'z o'lka madaniyatiga hurmat xissini shakllantirishning nazariy asoslari: ilmiy adabiyotda madaniy meros muammosi; madaniy merosga hurmat xissining tub ma'nodagi tavsifi; yuqori sinf o'quvchilarida madaniy merosga hurmat xissini shakllantirish jarayoning modelini asoslab berish, qo'shimcha ta'lim sharoitida yuqori sinf o'quvchilarida o'z o'lka madaniy merosiga hurmat hissini shakllantirish bo'yicha eksperimental ishlar: yuqori sinf o'quvchilarida o'z o'lka madaniy merosiga hurmat hissini shakllantirish bo'yicha maktab amaliyotining holatini tashxislash; yuqori sinf o'quvchilarida o'z o'lka madaniy merosiga hurmat hissini shakllantirish jarayoni modelini amalga oshirish; yuqori sinf o'quvchilarida o'z o'lka madaniy merosiga hurmat hissini shakllantirish dinamikasi o'rganilgan.[10:1]

Bunday tadqiqotlardan ma'lumki, nomoddiy madaniy meros obyektlarining yoshlar tarbiyasi, ma'naviyati, madaniyatidagi ahamiyati juda katta.

Bugungi kunda yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. Shu o'rinda Forobiy: "Har bir inson o'z tabiati bilan

shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin" ligini ta'kidlaydi. Ushbu vazifani to'la ro'yobga chiqishida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni o'rganib, o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rni teran anglab yetish muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, hozirgi sharoitda milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishda madaniy merosning o'rni quyidagi omillar bilan belgilanadi.

1. Xalqimizning haqqoniy tarixi, boy madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari hamda mustaqillik yillari ularni tiklab, rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglash;

2. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida yanratilgan keng imkoniyatlar va hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, tarixiy meros bilan bog'liq jihatlarni o'qitishning zamonaviy uslub-vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish

3. Ta'lim-tarbiyada madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi ishlarni milliy taraqqiyot manfaatlarini asosida uzluksiz rivojlantirib borish.

Bu omillarning mazmuni va ahamiyati madaniy merosdan yoshlarga doir milliy tarbiyada qanday foydalanish mumkin, degan masalalar bilan bog'liq. Madaniy meros-har bir xalqning ajdodlari tomonidan yaratilib, avlodlari hayotida yanada rivojlanib boruvchi moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir. Har bir davr va har bir avlod o'zig xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday bo'ladi. Shu bois madaniy merosning inson, millat, jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati va qadri, ularga nisbatan munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu meros har bir avlod tomonidan rivojlantirilib, boyitib borilsa, millatning

kelgusi taraqqiyoti yuksalib borishi, unitilib yoki yo‘q qilib yuborilsa, milliy madaniyat, binobarin millat ham barham topishi mumkin.

Bugungi globallashuv davrda axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi natijasida yoshlar ongiga mutaqqillik, yuksak ma’naviy insonparvarlik, an’analarga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari chuqur singdirish hamda radikalizm va ekstremistik g‘oyalarga qarshi immunitetini mustahkamlash uchun madaniyatimizni asrash, nafaqat asrash balki yanada rivojlantirishga hissa qo‘shishimiz kerak. Avvalambor insonning ruhiyatiga bir nazar soladigan bo‘lsak, insonlarga nasihat qilishdan ko‘ra, ularga obrazlar orqali ta’sir etish jarayoni sezilarli natijaga erishishga olib keladi. Va aynan, O‘zbekistonda joylashgan madaniy meros obyektlarini yoshlarga tanishtirish orqali ularda umuminsoniy tuyg‘ularni, Vatanga muhabbatni, qadriyatlar, urf-odatlariga, milliy o‘zlikka bo‘lgan hurmat tuyg‘ularni ularda shakllantirishning samarali usuli bo‘ladi.

Malumki, tarixiy-madaniy yodgorliklar har bir xalqning, millatning xalqaro mavqeyini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Madaniy-meros yodgorliklarining xalq ma’naviyati rivojlanishida o‘rni kattadir. Jamiyat ma’naviyati birdan paydo bo‘lmaydi, u kishilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli vujudga keladi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish” to‘g‘risidagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi o‘zbek xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini himoya qilish va ulardan foydalanishdagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdab takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda yurtimizda 8210 ta moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan. Bundan 4788 tasi arxeologik, 2265 tasi arxitekturaviy obyekt, 625 tasi monumental, 530 tasi diqqatga sazovar joylar hisoblanadi. Xalqlarning ma’naviyati yangidan yaratilmaydi, balki mavjud



boʻlgan manaviy merosga tayanadi. Maʼnaviyat bizga yetib kelgan qadriyatlar, anʼanalar, tajribalar tufayli boyitiladi. Kelajak avlod tarixni oʻrganibgina kelajakka nazar soladi va yashash tajribasiga ega boʻladi. Shu bois tarixiy madaniy merosimizni zarar yetkazmasdan uzoq muddatga saqlab qolish butun millatning, insoniyatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ammo soʻnggi yillarda madaniy meroslarimizga juda katta xavf solinmoqda. Bular quyidagi xavflar boʻlishi mumkin;

1. Tabiiy taʼsir: halokatli hodisalar, iqlim oʻzgarishi, tabiiy ofatlar, eroziya;
2. Antropogen taʼsir: davlatlararo urushlar, qurolli toʻqnashuvlar, davlat nazoratining yoʻqligi, diniy va milliy nizolar, aholi soni koʻpayishi;
3. Ilimsizlik: Insonlar maʼnaviyati sayozligi, bilimsizlik, jaholatparastligi jahondagi koʻplab tarixiy-madaniy yodgorliklarning talon taroj qilinishiga va yoʻq boʻlib ketishiga olib keladi.

Maʼlumotlarga koʻra soʻnggi vaqtlarda madaniy meros obyektlarida amalga oshirilayotgan taʼmirlash, restarvatsiya ishlari davomida buyurtmachi, pudratchi, loyihachi va ekspertiza tashkilotlari tononidan obyektlarning tarixiy va badiiy qiymatiga putur yetkazish holatlari kuzatilmoqda. Masalan Buxoroda XX asr boshlarida qurilgan “Sitorai Mohi Xossa” (Amir Sayyid Olimxonning yozgi saroyi) saroyini restarvatsiya qilish ishlari notoʻgʻri olib borilganligi tufayli saroyning bir qator qismi tarixiy va badiiy ahamiyatini butkul yoʻqotgan. Umumiy miqdorda 28 mlrd soʻmlik zarar yetkazilgan. Ushbu tarixiy majmuadagi restarvatsiya ishlari “Madaniy meros obyektlarini restarvatsiya qilish” talablariga zid ravishda olib borilgan. Maxsus ilmiy-ekspert kengashi bilan kelishilmagan, tegishli ruxsatnomalar olinmagan va yana boshqa talablar qoʻpol ravishda buzilgan. Bu kabi achinarli holatlarga hozirgi kunda koʻp duch kelyabmiz, mutaxassislarning fikricha, ayni paytda 2500 ga yaqin arxitekturaviy yodgorliklarning ahvoli qoniqarli deb boʻlmaydi. Ayni paytda respublikamiz hududida 30 dan ortiq qazilma ishlari olib borilmoqda, ular tosh asridan to XVIII asrgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Aksaryat arxeologik qazilmalar xorijlik

olimlar homiyligida olib borilmoqda. Achinarlisi shuki, ko‘plab kashf qilinayotgan yodgorliklar ikki yil o‘tar-o‘tmas qor-u yomg‘ir ostida nurab ketayotganligi bois, ularni asrab qolish qadimshunoslar oldidagi kata muammoligicha qolyabdi. Ba’zi mutaxassislarining fikricha, to‘laqonli qazishma ishlarini olib borishga respublika iqtisodiy, ilmiy imkoniyatlari yetarli emas, hozircha “Tuproq ostidagi tarix” ni shundayligicha qoldirgan ma’qul.

Tarixiy-madaniy yodgorliklar insoniyatning rivojlanishida, ma’naviy kamolotga yetishida muhim ahamiyatga ega. Yodgorliklarni restarvatsiya qilish va rekonstruksiya qilishning asosiy talablaridan biri uni asl ko‘rinishda saqlab qolish hisoblanar ekan, bunda avvalo, yodgorliklarning barcha elementlari qurilish texnikasi va uslublarini aniq tasvirlashni talab qiladi. Hozirgi kunda olimlarimiz tomonidan yo‘q bo‘lib ketish ehtimoli katta bo‘lgan yodgorliklarni uch o‘lchovli virtual rekonstruksiyalari ham ishlab chiqilmoqda. Endilikda har bir qiziquvchi inson dunyoning istalgan tarixiy yodgorlikiga virtual sayohat qilishiga imkoniyatiga egadir. Tarixiy-madaniy meros obyektlarini o‘rganish orqali har bir inson o‘z tarixi, an’anasi, urf-odatlarini haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqining boy tarixi dunyo hamjamiyatini ham befarq qoldirmayabdi, jumladan, YUNESKO ning yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarini muhofaza qilish xalqaro kengashi (ICOMOS), madaniy boyliklarni asrash va restarvatsiya qilish xalqaro tadqiqot markazi hamkorligida O‘zbekiston madaniy merosini saqlashga oid 9 ta turli xil loyihalarni amalga oshirishda 700 ming AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilgan.

Umid qilamizki, madaniy meros obyektlarimiz bizdan keying avloodlar uchun ham huddi biz kabi juda qadrlil va e’zozli bo‘lib qoladi. Va albatta, biz ham bu jarayonda o‘z hissamizni qo‘shsak maqsadga muvofiqdir. Zero, birgalashib shu davrgacha ko‘plab to‘siqlarni yengamiz, bundan keyin ham yenga olamiz, shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 30-31.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 29-30.
3. Toshmatov O'.G', Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 5-6.
4. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. – Parij. 2003.
5. Shamsutdinov R., Mo'minov N., O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 21.
6. Rahmonov M. O'zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 20
7. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov V., Safarov O. O'zbek xalq poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B.5.
8. O'zbek folklor ocherklari. II tom. Mas'ul muharrir Sarimsoqov B. – Toshkent: Fan, 1989. – B.3.
9. Мармилова В.О. Сохранение культурного наследия в Нижнем Поволжье: в конце XX – начале XXI в.: Дис. ... канд. ист. наук. – Астрахань: АГУ, 2008. – 176 с
10. Матаев В.В. Формирование у старшеклассников ценностного отношения к культурному наследию родного в условиях дополнительного образования: Дис. кан. пед. наук. – Волгоград: ВГСПУ, 2009. – 243 с.